

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING INFORMATION MADANIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM MUHITINING O'RNI****Raxmatov Odiljon****Farg'ona davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.7776317>**

Dunyoda tobora takomillashib borayotgan axborot asrida zamonaviy texnika ham rivojlanib borar ekan, jamiyat ham o'z maqsad va vazifalarini o'zgartirib boradi. Zero, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan qayd etilganidek, «Hozirgi zamonda xizmatlarning katta qismi axborot texnologiyalari orqali ko'rsatilayapti. Boshqa sohalarning ham samaradorligi shunga bog'liq.»

Xususan, mamlakatimizda akademik va moliyaviy jihatdan mustaqillikka ega bo'layotgan oliy ta'lim muassasalarida informatika o'qitish sohasida yetishtirilayotgan kadrlarning ta'limi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida yangi joriy etilgan kredit-modul tizimi, "Hemis" ma'lumotlar bazasi bilan ishlash jarayoni bo'lajak informatika o'qituvchilari uchun eng katta tajriba beruvchi zamonaviy amaliy mashg'ulotlardan biri bo'ldi.

Aytish kerakki, uzluksiz informatik-texnik taraqqiyot jarayoni oliy ta'lim muassasalari zimmasiga yanada ulkan ma'suliyat yuklaydi. Mamlakatga zamon talablariga mos bo'lajak informatika o'qituvchilarini yetkazib berishda ularga o'qitiladigan ta'lim dasturlari, eng yangi metodik qo'llanmalar, interaktiv ta'lim vositalari, rivojlangan moddiy-texnik ta'minoti muhim masala hisoblanadi. Bu borada, avvalo, ayrim tushunchalarga e'tibor qaratish zarur bo'ladi:

Axborot hamjamiyatlarining yuzaga kelishi bilan birgalikda alohida jamiyatlar va sivilizatsiyalar, shu jumladan milliy etnik arxetiplar taraqqiyotining, mavjud qadriyatlar va axloq tizimlarining ijtimoiy genetik mexanizmlarini buzishga qaratilgan axborot urushlari fenomeni paydo bo'ldi". Yolg'on xabarlar tarqatish, voqelikni virtuallik bilan almashtirish oqibatida jamiyat o'z hayotiga tahdid solayotgan turli da'vatlarga o'z vaqtida javob bera olmay qoladi, bundan tashqari, bunday undovlar va tahdidlarni tegishli ravishda qabul qilish va muhokama ham qila olmay qoladi. Shuning uchun ham zamonaviy (eng avvalo O'zbekiston) jamiyatida axborot xavfliligi va xavfsizligi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarib turadigan ijtimoiy omillarni aniqlashtirib olish zarurati tug'iladi. Shu boisdan ham Abu Muslim axborot urushi haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: «axborot urushining maqsadi – shaxsiy axborot xavfsizligini yuqori sifat bilan ta'minlash va raqib tarafidan yetkaziladigan talafot oqibatlarini eng yuqori darajada kamaytirishdir. Buni bir qator vazifalarni yechish yo'li bilan amalga oshirish mumkin. Ular orasida eng muhim sanalgan raqibning axborot muhitidagi ob'ektlarini yo'q qilish va o'z ma'lumotlarini himoya qilish yotadi. Bular axborot urushlari tarkibini, tuzilishi hamda maqsad va vazifalarini belgilab beradi" deb ta'kidlaydi.

Jamiyat hayoti uchun bo'lgan xavf xatar, avvalambor, nomutanosiblik, jamiyat tizimida ichki aloqalarning buzilishi bilan bog'liq. Shunday ekan, xavfsizlik deganda ichki birlikni, ushbu jamiyat yaxlitligini qayta tiklash, jamiyat o'zining ob'ektiv ehtiyojlariga mos maqsadlarni ishlab chiqish layoqatini va ularga erishish imkoniyatlarini saqlab qolishi tushuniladi. Shuning uchun, eng avvalo, axborot jamiyatidagi (jumladan, uning zamonaviy O'zbekistondagi o'ziga xos

xususiyatlarini) «xavflilik» va «xavfsizlik» fenomenlarini hisobga olmasdan turib, ilmiy tahlil qilishning iloji yo'q. Axborot faoliyati to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarni sintez qilish asosida axborot ta'sirining istalgan ob'ekti uchun xavfning yuzaga kelishi mexanizmlarini ochib berish zarur. Faqatgina shu yo'l bilan zamonaviy jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash usullarini aniqlab olish, turli xildagi destruktiv axborot ta'sirlaridan himoya qilishning o'ziga xos jihatlarini ochib berish mumkin bo'ladi.

Ushbu soha bilan bog'liq jarayonlarni o'rganish asosida O'zbekistonda mustaqillik yillarida aholi, ayniqsa yoshlarning axborot xavfsizligi va ularning bu boradagi madaniyatini shakllantirish omillariga jiddiy e'tibor berilayotganligi aloqa va axborotlashtirish sohasida salmoqli ishlar qilinganligida yaqqol namoyon bo'layotganligini ta'kidlash lozim. Shu bilan birga, aholi, avvalo, yoshlarni axborot sohasidagi xatarlardan himoyalash mavzusining hozirgi kunda ahamiyati yanada oshib borayotgan yana bir muhim jihatiga alohida ahamiyat qaratish zarur. Ya'ni, hozirgi zamonda jamiyatning axborotlashib borayotgani va bu jarayonning tobora kengayib, yangi jabhalarni zabt etayotgani natijasida har bir davlatning bu masalaga alohida e'tibor berishi zarurligi - bu hozirgi davrning ustivor tendensiyasiga aylandi. Ushbu jarayonlarning mohiyatiga alohida ahamiyat qaratilgan "Axborot-psixologik xurujlaridan himoya qilish texnologiyalari" haqidagi o'quv-uslubiy majmuada alohida ta'kidlanganidek, bugungi kunda axborotlashuv tufayli o'qish, o'qitish ishlarining samaradorligini yanada oshirish imkoniyati yaratilmoqda. Buning natijasida rivojlangan mamlakatlar bo'lmish AQSH va Yaponiyada yalpi elektron oliy ta'limga o'tish vazifasi kun tartibiga qo'yilmoqda. Siyosiy sohada ham axborotlashuv inqilobi tufayli jiddiy o'zgarishlar kutilmoqda. Chunonchi, davlat hokimiyati markazlashganligi o'rniga shaxs erkinligi salmog'i oshib bormoqda. Natijada fuqarolar har birining demokratik qarorlar qabul qilinishida bevosita ishtirok etishi ta'minlanadi. Boshqa tomondan qaraganda, davlat markazlashganligining kuchsizlanishi axborotlarga egalik qilish natijalari bilan ham bog'liq bo'lmoqda.

A.Tashanovning fikriga ko'ra: «...axborot inqilobining yanada chuqurlashuvi, insonga ta'sir ko'rsatuvchi texnik vositalar va psixologik mexanizmlarni yaratish alohida individning dunyoqarashini an'anaviy madaniyatdan boshqa mazmunda shakllantirish imkonini beradi. Bu esa an'anaviy siyosiy, diniy yoki boshqa konsepsiyalardan tashqarida yotgan mafkuralarning qat'iyani yangi shakllari paydo bo'lishi uchun sharoit yaratadi". Axborotlashgan jamiyat belgilari tashqi siyosat sohasida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lmoqda. AQShdan tashqari qator mamlakatlar, jumladan, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Rossiya jahon miqyosida mustaqil yetakchi o'ringa davogarlik qilmoqda. Ayni vaqtda mintaqalararo ittifoqlarning (masalan, G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika) o'rni kuchaymoqda. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Jamiyatning axborotlashuvi ijtimoiy, texnologik, iqtisodiy, siyosiy va madaniy mexanizmlarning oddiygina bog'liqligi emas, balki uyg'unlashgan, umumiy rivojlanish jarayonidir, deya xulosa chiqarar ekan s.f.d., professor A.Mo'minov ta'kidlaydiki, axborotlashuv an'analari va jarayonlarni tahlil qilish rivojlangan informatsion jamiyatlarda barcha yoki deyarli barcha intellektual industriya markazlashuvi, ular asosiy intellektual resurslar manbai, saqllovchisi, texnologiyalar ishlab chiqaruvchisi, asosiy madaniy va ijtimoiy-gumanitar zahiralar egasi bo'lishini ko'rsatmoqda. Shuningdek, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «Barchamiz bugun

dunyoda ro'y berayotgan shiddatli o'zgarishlarning guvohi bo'lib turibmiz. Ilg'or texnologiyalarning faol joriy qilinayotgani va global axborot kommunikatsiya makoni taraqqiy etayotgani barcha jarayonlarni jadal va tez o'zgartirmoqda, qit'alar, mintaqalar, davlatlar va biznes darajasidagi hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda".

Xulosa sifatida aytish joizki, raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirish borasida axborot xavfsizligini ta'minlashning samarali pedagogik omillarini qo'llay bilish zarur. Bizning yosh avlod ziyo taratuvchilari – bo'lajak informatika o'qituvchilarimiz axborot asrida yashab, "bugun kim axborotga ega bo'lsa o'sha dunyoga hukmronlik qiladi" degan tushuncha singib borayotgan jamiyatdan nafas olayotgan ekan, biz bugungi kunda ma'rifiy targ'ibotimizni, ta'lim-tarbiya saboqlarimizni auditoriyadan ham tashqarida - internet saytlarida, ijtimoiy tarmoqlarda, bosma va elektron nashrlarda, ommaviy axborot vositalarida ham jadal olib borishimiz yaxshi natijalar beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ongi, tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha sohalar albatta axborot tashishga xizmat qiladi. Biz aynan shu sohalarga o'zimizning maqbul axborotlarimiz bilan zararli xabarlar hurujidan oldin kirib borishimiz va axborot oluvchining shuurida himoya va tahlil qobig'ini hosil qilishimiz darkor.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni // Axborot va axborotlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. – T.: Adolat, 2008. – 290 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya xizmatlari sifatini yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 185-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.02.2018 y., 06/18/5349/0792-son
4. Shermuhammadov B.Sh. Creativity of a Teacher in an Innovative Educational Environment. Journal of Higher Education Theory and Practice Vol. 22(12) 2022.
<https://articlegateway.com/index.php/IHETP/article/view/5468>.
5. Israilova K.T. Language and communication language of social networks. Scholar Express Journals, World Bulletin of Social Sciences, Vol. 22 (07) and ISSN (E): 2749-361X Impact Factor: 7.545, (2022).
<https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/523>.
6. Grinin L.E., Korataev A.V. Sotsialnaya mikroevolyusiya i istoricheskiy protsess. // J.Filosofiya i obshestvo. – M., 2007. - №2. – S.19-24.
7. Dawn S. Conrad, Note, Protecting Children from Pornography on the Internet: Freedom of Speech is Pitching and Congress May Strike Out, 9 RICH. J.L. & TECH.